



Botirali Vaxobov

Namangan davlat universiteti
“Tarix” kafedrası mudiri,
tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori
(PhD).

E-mail: botiralivaxobov@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17648838>

FARG’ONA VODIYSI SUBETNOSLARINING AN’ANAVIY TURAR-JOYLARI.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Farg’ona vodiysi hududida yashagan subetnoslar – qirg’iz, qipchoq, qoraqalpoq va quramalarning an’anaviy turar-joylarining etnik va geografik xususiyatlari tahlil qilingan. Unda asosiy e’tibor mintaqada yashovchi etnoslarning an’anaviy turar-joylari turlari tipologiyasi, nomlanishi va jihozlanishi kabi masalalarga qaratilgan.

Kalit so’z va iboralar: Farg’ona vodiysi, subetnoslar, etnik jarayonlar, etnoslararo jarayonlar, moddiy madaniyat, turar-joylar, qirg’iz, qipchoq, qoraqalpoq, qurama, aholi.

Kirish. Moddiy madaniyat har qanday etnik jamoa turmush tarzining asosiy ko’rsatkichi hisoblanib, xalqning an’anaviy moddiy madaniyati ma’lum bir hududda kechayotgan etnik, xususan, etnoslararo jarayonlarni o’rganishda muhim manba bo’la oladi. An’anaviy moddiy madaniyatda har bir xalqning etnik tarixi, o’zga xalqlar bilan o’xshash yoki tafovutli tomonlari, etnik tarqoqlik yoki o’z etnik yadrosi tevaragiga jipslashuv darajasi namoyon bo’ladi.

XIX–XX asr boshlarida Farg’ona vodiysi hududida kechayotgan etnoslararo jarayonlar o’zaro etnomadaniy aloqalarda ham yorqin aks etgan. Ushbu etnomadaniy aloqalarning mazmun-mohiyati, rivojlanish jarayoni hamda holati ushbu davrda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o’zgarishlar bilan uzviy bog’liq edi. Etnoslar hayotida yuz berayotgan har bir o’zgarish o’z o’rnida mazkur etnos madaniyati, xususan, bir qancha tarkibiy qismlardan iborat bo’lgan moddiy madaniyatida o’z ifodasini topmoqda edi.

Asosiy qism. O’rganilayotgan davrdagi Farg’ona vodiysi aholisining manzilgohlarini tabiiy-geografik joylashuvi bo’yicha uchta guruhga ajratib ko’rsatish mumkin: birinchi guruhga vodiyni tekislik qismida o’rganilayotgan davrdan ancha avval tashkil topgan aholi manzilgohlar (shahar va qishloqlar)ni kiritish mumkin. Vodiyni tekislik qismi qadim davrdanoq aholi tomonidan o’zlashtirilgan bo’lib, aholi asosan, dehqonchilik, bog’dorchilik va hunarmandchilik bilan shug’ullangan.

Ikkinchi guruhga tegishli aholi makonlari tog’oldi, tekislik qismlari hamda daryo va soy qirg’oqlarida joylashgan. Ushbu guruhga kiruvchi aholi manzilgohlarida asosan, chorvachilik bilan dehqonchilikni qo’shib olib boruvchi yarim o’troq aholi (qipchoq, qurama, turk) yashar edilar. Mazkur manzilgohlar turli ko’rinishda bo’lib, ular orasida qo’rg’oncha tipidagisi ajralib turardi.

Uchinchi guruhga esa tog’ daralarida tashkil topgan manzilgohlarni kiritish mumkin. Ushbu manzilgohlar vaqtinchalik (yozlik) bo’lib, u asosan, chorvasini boqayotgan u yoki bu urug’ vakillarining ko’chma “qora uylar”idan tashkil topgan ovul tipidagi manzilgohlar edi. Turli etnik jamoaga mansub aholi manzilgohlari bir-biridan nafaqat geografik joylashuvi, balki vodiylar xo’jalik hayotida tutgan o’rni, aholisining soni hamda tashqi va ichki manzarasi bilan ham ajralib turgan.

Chorvador qabilalar o’zlari uchun qishlov joylari sifatida shamoldan himoya qilib turuvchi qoyalar bilan o’ralgan tog’ daralari yoki qish faslida ham chorvani boqib turish imkoniyati bo’lgan tog’oldi hududlari hamda hali dehqonchilik uchun o’zlashtirib ulgurmagan vodiylar tekislik qismining o’tzor

hududlarini tanlaganlar. Misol uchun, Farg'ona vodiysi qipchoqlarining qishlov makonlari Qurama va Chotqol tog' tizmalarining janubiy hamda janubiy-sharqiy yonbag'irlarida hamda Farg'ona tog' tizmasi etaklarining janubiy-g'arbiy qismida joylashgan edi [1. C. 22].

Yarim o'troq va yarim ko'chmanchi aholi o'zlarining qishlov joylari, avvalo, an'anaviy chorvachilik xo'jaligini yuritish uchun qulay tabiiy-geografik sharoitning mavjudligi nuqtai nazaridan, so'ngra mahalliy o'troq aholi bilan iqtisodiy, xususan, tovar ayirboshlash imkoniyatlarini hisobga olgan holda ham tanlaganlar. Shuning uchun bunday qishlov joylari ko'p hollarda o'troq dehqon aholi qishloqlariga yaqinroq joylashgan bo'lardi.

Qo'rg'oncha tipidagi qishlov manzilgohlar ko'chmanchi chorvador qabilalarning yarim o'troqlikka o'tish jarayonida tarkib topgan turar joylaridir. Ushbu tipdagi makonlar uchun eng xarakterli jihat shuki, ular baland himoya devorlari bilan o'rab olingan edi. Er-xotin Nalivkinlar Farg'ona vodiysining asosan qirg'iz, qipchoq, qoraqalpoq va quramalar yashaydigan hududida qishloqlar nisbatan kam uchrashi, ular o'rnini atrofi baland paxsa devorlar bilan o'rab olingan ana shunday alohida qo'rg'onchalar egallashini qayd etgan [2. C. 7].

Ko'p hollarda bunday qo'rg'onchalar ma'lum bir urug' oqsoqoli tomonidan yoki u boshchiligida barpo etilib, uning nomi bilan atalgan. Qo'rg'oncha tipidagi manzilgohlar tom ma'nodagi doimiy turar joylar ham emas edi. Aholi manzilgohlarining ushbu turi yarim o'troqlikka o'tgan chorvador xalqlar uchun xos bo'lib, u aholining asosiy qismi uchun faqat qish faslidagina yashash joylari (qishlash makonlari) vazifasini o'tar edi. Kunlarning isiy boshlashi bilan qo'rg'oncha aholisining asosiy qismi o'z chorvalari bilan yana tog' yaylovlariga ko'chib o'tgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran, yarim o'troq aholining bunday qo'rg'onchalari atrofida alohida tom uylar va xo'jalik binolari ham paydo bo'la boshlagan. Asr oxiriga kelib esa aholi manzilgohlarini mudofaa devorlari bilan o'rab olish an'anasi yo'qolgan.

Ushbu davrdan e'tiboran, yarim o'troq aholining qo'rg'oncha va boshqa turdagi qishlov joylarining qiyofasida jiddiy o'zgarishlar yuz bera

boshlagan. Bu eng avvalo, ularni ko'proq o'troqlik va u bilan bog'liq ravishda dehqonchilik bilan shug'ullanishga o'tishining kuchayishi oqibatida sodir bo'layotgan edi. Yarim o'troq aholi endi avvalgi qishlov joylarida ko'proq turg'un hayot kechira boshlaganlar. Ularning manzilgohlari esa tobora o'troq dehqon – o'zbek va tojik qishloqlarining qiyofasiga kira borgan. Biroq hali endigina tashkil topayotgan yarim o'troq aholining bunday qishloqlari bilan o'troq o'zbek va tojiklar yashaydigan qishloqlar orasida tafovut sezilarli bo'lgan. Qipchoq, qurama, turk, qoraqalpoq kabi endigina o'troqlikka o'tgan xalqlar qishloqlarining ko'rinishi esa o'zgacha bo'lgan [3. B. 78].

Yangi tashkil topayotgan yarim o'troq aholining aksariyat qishloqlari o'zlarining avvalgi qishlov joylarida tashkil topdiki, shu sababli mazkur qishloqlar u yoki bu urug' nomi bilan atalgan. Farg'ona vodiysining juda ko'p qishloqlar nomi etnonimlardan tashkil topgan [4. 17–28].

Vodiyning turli zonalarida tashkil topgan yarim o'troq aholining qishloqlari o'z o'rnida bir xilda emas edi. O'troq o'zbek va tojik aholi yashaydigan qishloqlarga yaqinroq joylashgan chorvador qabilalarning manzilgohlari, undan olisroq (tog'oldi va tog' zonalari)da joylashgan qishlov makonlariga nisbatan o'zining tashqi hamda ichki qiyofasi bilan ajralib turgan.

O'troq aholining ta'siri kuchli bo'lgan joylardagi qipchoq, turk va yuzlarning qishloqlardagi hovlilari nisbatan ancha batartib joylashgan bo'lib, o'troq aholiga xos bo'lgan tom uylar va xo'jalik binolari ko'proq edi. Buning ustiga hovlilarning aksariyati paxsa devorlar bilan o'rab olingan va mevali daraxtlar ham ekilgan. Umuman olganda, bu kabi qishloqlarning tashkil topishi va rivojlanishida o'troq aholining ta'siri yaqqol sezilib turgan.

O'rganilayotgan davrda O'rta Osiyo va Qozog'iston, xususan, Farg'ona vodiysi aholi manzilgohlarida asosan ikki turdagi uy-joylar mavjud bo'lgan. Birinchi turdagisi o'troq aholi turmush tarziga mos bo'lib, ushbu turdagi uy-joylarga nisbatan ilmiy adabiyotlarda “doimiy”, “ko'chmas”, “turg'un” uy-joylar kabi iboralar, chorvador xalqlar uchun xos bo'lgan ikkinchi turdagi uy-joylarga nisbatan esa, aksincha “vaqtinchalik”, “ko'chiriladigan”,

“ko’chma” uy-joylar singari atamalar qo’llash qabul qilingan. Darhaqiqat, yuqoridagi ilmiy atamalarni qo’llash u yoki bu etnik jamoa turmush tarzi, avvalo uni belgilovchi xo’jalik yuritish xususiyati (o’troq-dehqon, hunarmand yoki ko’chmanchi-chorvador)ga asoslangandir. Har bir etnik jamoa turmush tarzi uning xo’jalik faoliyati bilan uzviy bog’liq bo’lgan.

Farg’ona vodiysi aholisi uchun xos bo’lgan uy-joylarni nomlashda ayni vaqtda mahalliy (lokal) iboralar ham keng qo’llanilgan. O’troq dehqon va hunarmand aholi uchun xos bo’lgan doimiy tipdagi uy-joylar ko’proq “tom”, “tom uy” iboralari bilan, ko’chmanchi va yarim o’troq aholining vaqtinchalik, ko’chma uy-joylari esa “qora uy”, “o’tov”, “kigiz uy”, “qirg’iz uy” kabi atamalari bilan ma’lum.

Farg’ona vodiysi aholisi XIX – XX asr boshlarida ko’plab boshqa hududlar aholisi kabi “kapa”, “chayla”; “olachiq”, “yerto’la” deb nomlanuvchi vaqtinchalik va mavsumiy uy-joylardan ham keng foydalanganlar.

O’rni kelganda shuni ham qayd etish kerakki, agar birinchi turdagi uy-joylar asosan, o’troq aholi, ikkinchi turdagisi esa chorvador xalqlar tomonidan qurilgan va foydalanilgan bo’lsa, “kapa”, “chayla”, “olachiq”, “yerto’la” kabi uy-joylar har ikkala xo’jalik yo’nalishidagi xalqlar orasida ham tarqalgan edi. Ushbu turdagi uy-joylarning ma’lum bir xalq orasida qay darajada tarqalishi ko’p jihatdan iqtisodiy va tabiiy-geografik omilga bog’liq bo’lgan.

Uy-joylarning qanday qurilish materiallaridan tiklanganligi va tom qismining shakli ko’p jihatdan tabiiy iqlim sharoiti bilan bog’liq bo’lgan. Geografik omil Farg’ona vodiysining turli hududlardagi aholi uy-joylarining o’ziga xos tarzda shakllanib borishiga kuchli ta’sir ko’rsatgan.

Aholi uy-joylari uzoq davom etgan evolyusion jarayon natijasida shakllanib borgan. Shubhasiz, u yoki bu etnik jamoa uchun xos bo’lgan uy-joy turlarining shakllanishida ushbu hududda yashab turgan o’zga etnos vakillarining ham ta’siri bo’lgan. Moddiy madaniyatning ushbu komponentida ham o’zaro aloqalar va bir-biriga ta’sir ko’rsatish holatlari yuz bergan. Oqibatda, ma’lum tarixiy-etnografik hududda yashovchi turli

etnik jamoalarning uy-joylarida ham ko'plab umumiylik hamda o'xshashlik paydo bo'lgan.

Farg'ona vodiysi va unga tutash hududlarda yashovchi chorvador (qipchoq, turk, qurama hamda boshq.) xalqlarda o'troqlashuv va dehqonchilik bilan shug'ullanishga o'tish jarayonining XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran yanada jadallashgan. Ushbu jarayon mazkur xalqlar moddiy madaniyati, xususan, turar-joylarda ham keskin o'zgarishlarning yuz berishi bilan bog'liq holda kechgan.

Vodiyning katta qismi, ayniqsa, dehqonchilik qilib kelinayotgan hududlarga yaqin yaylovlarning o'zlashtirilishi natijasida chorva mollarini boqish imkoniyati kamaygan. Bu esa o'z o'rnida chorva hamda undan olinadigan mahsulotlar, xususan, ko'chma uy – “qora uy”larni qoplashda ishlatiladigan kigiz tayyorlashdagi asosiy xom ashyo hisoblangan junning kamayib ketishiga olib kelgan. Oqibatda, qipchoq, qurama, yuz kabi yarim o'troq va yarim ko'chmanchi aholining ba'zi bir guruhlarini endilikda o'zlari uchun an'anaviy bo'lgan ko'chma uy - “qora uy”larni tiklashga qodir bo'lmay, loy devorli ko'chmas, doimiy tipdagi uy-joylarni qurishga kirishganlar [5. B. 85].

Yarim o'troq va yarim ko'chmanchi aholi tomonidan loy devorli ko'chmas uy-joylarni qurishga o'tish vodiyni barcha hududlarida bir tekisda yuz bergan deb bo'lmaydi, albatta. Chunki, ushbu jarayon ularning o'troqlashuv va dehqonchilikka o'tish jarayoni bilan uzviy bog'liq holda kechgan. Ya'ni, o'troq o'zbek, tojik va uyg'ur qishloqlariga yaqin yashagan qirg'iz, qoraqalpoq, qipchoq, turk, yuz, qurama kabi yarim o'troq aholida tog' hamda tog'oldi zonalaridagi yarim ko'chmanchi etnoslarga nisbatan loy devorli uy-joylar tez suratlar bilan qurila borgan.

Yana shuni ham ta'kidlash joizki, endigina o'troqlikka o'tayotgan oilalarning bir qismi (asosan, kambag'al oilalar)) “yerto'la” tipdagi uy-joylarda ham yashay boshlaganlar. Bunday oilalar, odatda, na an'anaviy ko'chma uy (“qora uy”) va na loy devorli doimiy uy-joylar tiklash imkoniyatiga ega bo'lmay, yerni odam bo'yi barobar uzunchoq yoki dumaloq shaklda kovlab, ustki-yon qismiga 80-100 sm balandlikda chim

bosganlar va tom qismiga xari, so'ngra to'sin terib, turli shox-shabba hamda qamish kabi mahalliy materiallardan yopib, ho'l tuproq bilan yopganlar va undan uy-joy sifatida foydalanganlar [6. C. 148].

“yerto'la” tipidagi uy-joylarni nafaqat o'troqlashayotgan qipchoq, turk, yuz, qurama, ming kabi etnik jamoalar, balki o'troq o'zbek, tojik va uyg'urlar yashaydigan qishloqlarda ham uchratish mumkin bo'lgan. Bu esa o'z o'rnida, mazkur uy-joy turining vujudga kelishi va tarqalishi, eng avvalo, aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati hamda tabiiy shart-sharoit omillari bilan bog'liqligini ko'rsatadi. “yerto'la” tipidagi uy-joylarga ko'chma uy-joylar bilan doimiy uy-joylar oralig'idagi o'tish davri uy-joylari sifatida qaralishi kerak. Tarixiy taraqqiyot shuni ko'rsatadiki, aholi moddiy sharoitlarining yaxshilanib borishi bilan yerto'la va kapa singari uy-joylar xalq iste'molidan chiqdi.

Vodiyning yarim o'troq va yarim ko'chmanchi aholisi o'zlari uchun doimiy tipdagi ko'chmas uy-joylar tiklashga kirishar ekanlar, asosan, loy devorli va ancha dag'al bo'lgan bir xonali uylar qurganlar. Ular loy devorli uy-joylarni tiklashda tajriba yo'qligi sababli, aksariyat hollarda ko'shni o'troq o'zbek va tojik hamda uyg'ur xalqlarining tajribasi va bevosita yordamidan foydalandilar. O'sha davrga bag'ishlangan tarixiy asarlarda o'troq aholi tomonidan endi o'troqlikka o'tayotgan qipchoq, qurama va shu kabi etnik jamoa vakillari uchun loy devorli uy-joylarni qurishda yordamlashilganligi haqidagi ma'lumotlar ko'plab uchraydi. Masalan, K. I. Antipina janubiy qirg'izlarning doimiy tipdagi loy devor uylari ko'p hollarda o'troq o'zbek, tojik va uyg'ur ustalari tomonidan bunyod etilganligini qayd etgan [7. C. 85].

Farg'ona vodiysining tekislik qismida o'troqlashayotgan yarim o'troq aholi vakillari ham doimiy turdagi uy-joy qurishda o'troq aholi yordamiga tayanganlar [8. C. 145]. Ayni vaqtda qipchoq, turk, qurama, yuz kabi yarim o'troq aholining o'zlari ham loy devorli doimiy uy-joylar qurishga kirisha boshlaganlar. Bunda ular yon atrofidagi o'troq dehqon aholi uchun xos bo'lgan ko'plab jihatlarni o'zlashtirganlar.

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida o'troq o'zbek va tojik aholi tomonidan qish faslida xonada isinish uchun qo'llanila boshlagan sandaldan ham asta-sekin o'troqlikka o'tayotgan aholi foydalana boshlaganlar. Dehqon va hunarmandlar bilan yonma-yon yashayotgan barqaror o'troqlikka o'tgan ba'zi bir badavlat qirg'iz, qipchoq va qoraqalpoq oilalari XIX asrning ikkinchi yarmidayoq ikki va undan ko'proq xonali, asrning oxirlaridan boshlab esa yanada takomillashgan, oldi ayvonli uylarda yashay boshlaganlar. O'troq o'zbek va tojiklar ta'sirida uylarining yoniga otxona, og'il, bostirma kabi xo'jalik binolarini ham qurgan.

Ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi va yarim o'troq aholi uchun an'anaviy hisoblangan ko'chma uy – “qora uy”lardan vodiyning o'troqlikka o'tayotgan yarim o'troq aholisi tezda voz kechmaganlar. Bunday ko'chma uylar dastlabki davrda qirg'iz, qipchoq, qurama kabi aholi hovlilarining o'rtasiga o'rnatilgan bo'lib, unda ota va ona o'zining voyaga yetmagan bolalari bilan yashaganlar. Qish faslida bunday uylar isitilgan ham. Uylangan o'g'il esa o'z oilasi bilan hovlidagi loy devorli uyda yashagan.

Keyinchalik bunday ko'chma uylar faqat yozgi uy-joy vazifasini bajargan. Bora-bora o'troq turmush tarzi bunday tipdagi uylarga ehtiyoj qoldirmagandan so'ng, undan ko'proq yaylovlarda chorva boqayotgan cho'ponlarga foydalanadigan bo'ldilar. Biroq, XIX – XX asr boshlarida vodiylar yarim o'troq aholisining salmoqli qismi hali “qora uy”, “kapa” va shu kabi nomlar bilan ataluvchi ko'chma uylarda yashardilar.

Bular ichida eng ko'p tarqalgani “qora uy” hisoblangan. U xalq orasida umumiy bir – “uy” atamasi bilan yuritilsa-da, ayni vaqtda bunday “uy”ning tiklanish usuli hamda ishlatiladigan materiallariga qarab, “kigiz uy”, “qirg'iz uy”, “oq uy”, “o'tov”, “bo'z uy” kabi nomlar bilan ham ma'lum bo'lgan.

Farg'ona vodiysining o'troq aholisi orasida tepasi kigiz bilan yopilgan ko'chma uy-joylarga nisbatan “qora uy” va “kigiz uy” atamasi kengroq qo'llanilgan. “Qora uy” atamasi o'troq aholi tomonidan etnik mansubligidan qat'iy nazar, barcha chorvador xalqlarning mana shunday uy-joylariga nisbatan ishlatilgan [9. B. 90].

K. Sh. Shoniyozov ham ushbu tipdagi uylarning nomlanishi haqida to'xtalar ekan, qipchoqlarda eskirgan, o'z rangini yo'qotgan bunday kigiz uy – “qora uy” nomi bilan, yosh kelin-kuyovlar uchun yangi tiklangan nikoh uyining esa “oq uy”, “o'tov”, “o'rgov” kabi nomlar bilan atalishini qayd etgan [10. C. 255].

Xulosa. Farg'ona vodiysi hududida joylashgan turli etnik jamoalarning turar joylari ham uzoq davom etgan etnomadaniy aloqalar natijasida shakllanib borgan. Ushbu davrda vodiyning o'troq va yarim o'troq hamda yarim ko'chmanchi aholisi xo'jaliklarining yo'nalishi va shunga bog'liq holda asrlar davomida shakllangan turmush tarzidan kelib chiqib, turli xildagi turar joylarda istiqomat qilganlar. O'troq dehqon va hunarmand aholi asosan doimiy turdagi ko'chmanchi uy-joylarda, chorvador xalqlar esa ko'proq vaqtinchalik ko'chma uylarda yashaganlar. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ldiki, o'troqlikka o'tayotgan vodiyning chorvador qipchoq, turk, qurama, yuz kabi etnoslari bu davrda ham o'troq aholiga xos bo'lgan uy-joylarni tiklash va jihozlashning ko'plab jihatlarini o'zlashtirib olganlar.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886. – С. 22.
2. Наливкин В.П., Наливкина М. Очерк быта женщины туземного оседлого населения Ферганской долины. – Казань, 1886. – С. 7.
3. Абдуллаев У. С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 78.
4. Губаева С. С. Этнический состав население Ферганы в конце XIX–начале XIX (по данным топонимии). – Ташкент, 1983. – С. 17–28.
5. Абдуллаев У. С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 85.
6. Джаханов У. Сезонные жилища таджиков долины Сох в конце XIX – начале XX века / Кочевое жилище народов Средней Азии и Казахстана. – М., 2000. – С. 148.

7. Антипина К. И. Особенности материальной культуры и прикладного искусства южных киргизов. – Фрунзе, 1962. – С. 185.
8. Губаева С. С. Население Ферганской долины в конце XIX – начале XX в. (этнокультурные процессы). – Ташкент, 1991. – С. 145.
9. Абдуллаев У. С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар... – Б. 90.
10. Шаниязов К. Ш. К этнической истории узбекского народа. – Ташкент: Фан, 1974. – С. 255.

ТРАДИЦИОННЫЕ ЖИЛИЩА СУБЭТНИЧЕСКИХ ГРУПП ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ.

Аннотация. В статье анализируются этногеографические особенности традиционных поселений субэтносов – кыргызов, кыпчаков, каракалпаков и курами, проживавших в Ферганской долине. Основное внимание уделяется таким вопросам, как типология, наименование и оборудование традиционных жилищ этносов, проживающих в регионе.

Ключевые слова и фразы: Ферганская долина, субэтнические группы, этнические процессы, межэтнические процессы, материальная культура, поселения, кыргызы, кипчаки, каракалпаки, курами, население.

TRADITIONAL DWELLINGS OF THE SUBETHNIC GROUPS OF THE FERGANA VALLEY

Abstract. This article analyzes the ethnic and geographical characteristics of the traditional settlements of the sub-ethnic groups living in the Fergana Valley - Kyrgyz, Kipchak, Karakalpak and Kurman. The main attention is paid to issues such as the typology, naming and equipment of the traditional settlements of the ethnic groups living in the region.

Key words and phrases: Fergana Valley, sub-ethnic groups, ethnic processes, inter-ethnic processes, material culture, settlements, Kyrgyz, Kipchak, Karakalpak, Kurama, population.

